



ONA TILI O'QITISHDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Oqmonova Sevinchoy Olloyor qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar
fakulteti O'zga tili guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich
talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8010107>

ARTICLE INFO

Received: 29th May 2023

Accepted: 05th June 2023

Online: 06th June 2023

KEY WORDS

Pedagogik kompetensiya,
modulli texnologiya, til
o'rganish qonuniyatlari,
Bumerang metodi, intellekt
xarita.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ona tili o'qitish darslarida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan modulli o'qitish texnologiyalaridan foydalanish yuzasidan fikr va muhohazalar yuritilgan bo'lib, darsning olib borilish texnologiyalari yuzasidan ham tavsiyalar berilgan. Shuningdek, maqolada yangi mavzu bayonining ifodalanishida bosqichma-bosqich tarzda bloklarga tayangan holatda mavzuning ifodaviyligini izohlash, bilim va ko'nikmalarni egallashning ahamiyati izohlaniladi. Maqolada o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq keluvchi metod va texnologiyalar haqida axborotlar ham mavjud.

Tilning ijtimoiy xususiyatlaridan biri shuki, kundalik turmush sharoiti va ijtimoiy muhit ta'sirida ham ona tili bilan bog'liq bilimlarning egallanishiga imkon yaratib beradi. Ona tili o'qitish darslarida turli xil ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari mavjud bo'lib, bularning bosh sababi anglashilayotgan mavzu ko'laminin yetkazib berilishi bilan izohlaniladi. Ta'lim tizimida ona tilini o'qitish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarning umum milliy qadryatlar darajasiga ko'tarilishi nuqtayi nazaridan modulli ta'lim texnologiyalari bilan ishlashish dars sifatini yanada oshirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Shuni aytish muimkinki, kishiular ona tili darslarining kichik yoshdanoq o'rgatilishi yuzasidan modulli texnologiyalarga qiyoslashadi. Buning sababi shundaki, modulli ta'lim texnologiyalarida ham ta'lim tizimining bosqichma-bosqich tarzida amalga oshirilishi yuzasidan ona tili o'qitish uslubiy dasturlarining boshlang'ich, o'rta, uqori ta'lim tizimlarida izohlanishiga ko'ra ham baholash mumkin. "Modulli talim texnologiyasi. Bu o'quvchilarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi. Modulli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos jihati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning mustaqil va ijodi y ishlariga imko beradigan modulli dastur tuzishdir. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, uning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini va faqat birgalikda bajarish emas, balki o'quvchilarni hamkorlikda o'qishga orgatadi, ular o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam va fikr almashinishi vujudga keltirish. Muammoli ta'lim texnologiyasi. Muammoli vaziyat yaratish, savollar qo'yish, masalalar va topshiriqlarni taklif qilish, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtirish va xulosalar to'g'riligini tasdiqlashdir".[1]



Modulli ta'lim texnologiyalaridan dars davomida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, o'qituvchining dars yuzasidan pedagogik mahoratini namoyish qilishida ham katta yordam beradi. Shuningdek, o'qitilayotgan darslik va mavzular ko'lamiga ko'ra bilim berishning bosqichlarga bo'linib, maxsus bloklarda amalga oshirilishi bilan xarakterli xususiyatlarni keltirib chiqaradi. Ona tili darslarida modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yuzasidan quyidagilar ahamiyatli hisoblaniladi.

1. Ynagi mavzuning belgilangan tartib va me'yorlarga bo'ysungan tartibda amalga oshirilishi;
2. Dars davomida an'anaviy va noan'anaviy ta'lim shakllaridan foydalanishda axborot kommunikatsiyalarining o'rne va rolga ahamiyat qaratish;
3. Til sohasida erishilayotgan yangiliklardan xabardor bo'lishning dars davomida ahamiyati;
4. Dars tizimining bosqichma-bosqich tarzda amalga oshirilishida maxsus belgilangan bloklarga amal qilish;
5. Yangi mavzu bayoni yuzasidan axborotlarning taqdim etilishida axborot kommunikatsiyalaridan unumli foydalanish;
6. Mustahkamlash darslarining maxsus tarzda belgilangan modular asosida qo'llanilish texnikasi;
7. Dap bo'laklarining o'zaro bir-biri bilan aloqaga kirishuvini ta'minlashda vosita sifatida qo'llaniluvchi birikmalar va boshqalar.

Ona tili o'qitish metodikasida mavzularning o'zaro mutanosiblikda olib borilishi yuzasidan qator metodlardan, uslub va qo'llanmalardan foydalanish yuzasidan "boomerang", "fsmu", "issiq kartoshka" va boshqa metodlar tavsiya etiladi. Modulli ta'lim texnologiyasining yana bir o'ziga xosliklaridan biri shuki, metodlarni mavzuga doir qilib qo'llashda novatsiya hodisasining o'rne katta ekanligi bilan xarakterlanadi. "Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchini faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari izlab topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi".[2] O'qituvchining pedagogik mahorati modulli ta'lim texnologiyalari bilan namoyon bo'ladi. Shuningdek, dars davomida modulli ta'lim texnologiyalardan foydalanish o'ziga xosliklarda namoyon bo'ladi. Ushbu holat asosan, dars tizimida naoyon bo'ladi. Shuningdek,

- o'zaro munosabat;
- metodlar amaliyotida;
- an'anaviy darslarda;
- noan'anaviy darslarda;
- pedagogik innovatsiyalarda;
- mudulli texnologiyalarda;
- muammoli ta'lim jarayonida;



- baholash texnologiyasida;
- ona tili o'qitish metodikasida;
- pedagogik kompetensiya jarayonida;
- mustahkamlash darslarida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ona tili darslarida modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda dars sifatini oshirishga qaratilgan usul va metodlar yig'indisi sifatida qaraladi. O'qituvchining yo'naltiruvchilik qobiliyati uning dars sifatida qo'llovchi pedagogik innovatsiyalar bilan birgalikda modulli ta'lim texnologiyalarida namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi. Ona tili o'qitish darslarida modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda maxsus bosqich va bloklar asosida ko'zda tutilayotgan bilim va ko'nikmalarni egallashlarida namoyon bo'ladi. Modulli ta'lim texnologiyalarida muvofiqlikni saqlagan holda o'quvchilarning yosh xususiyati, o'zlashtirish darajasiga muvofiq keluvchi metodlarning amaliyotida novatsion o'zgatishlar qilish, dars sifatini yanada orttirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'quvchilar bilan birgalikda ijtimoiy yaqinlikni yaratishda maktab darsliklar tizimi bilan yaqindan tanishish o'qituvchining pedagogik mahoratida ham namoyon bo'ladi. Ona tili o'qitish dasturida ijtimoiy kompetensiya hamda ularning dars jarayonida modulli ta'lim texnologiyalarida ham qo'llanilishiga ko'ra izohlaniladi.

References:

1. Qurbonova Dilnoza Abduxalilovna, Rahimova Soraxon Abdullayevna. "Ona tili va adabiyot darslarida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish" maqola. Ta'lim fidoiylari.
2. Fayziyeva Fotina Kudratovna. Ona tili va adabiyot darslarida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish. Science and innovation international scientific journal - 2022